



4

**NAMANGAN VILOYATI KAMBAG'ALLIKNI
QISQARTIRISH VA BANDLIK BOSH BOSHQARMASI
NAMANGAN TUMANI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA
BANDLIKKA KO'MAKLASHISH BO'LIMI**

160600, Namangan viloyati, Namangan tumani, Mustaqillikni 5-yilligi ko'chasi 10 uy, Telefon: (69) 47-20-005

2024-yil "23" 04

№ 32/03.01/01-154

**Namangan viloyati Kambag'allikni
qisqartirish va bandlik bosh
boshqarmasi boshlig'i**

Z.Ikramovga

Axborot

Namangan tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi ushbu orqali, O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligining 2024-yil 8-apreldagi 02-349-sonli xati, Navoyi viloyati Ichki ishlar boshqarmasi xuzuridagi Tergov Boshqarmasining 2024-yil 9-martdagi 18/554-sonli taqdimnomasida ko'rsatilgan holatlar yuzasidan Navoiy shahar Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limida o'tkazilgan xizmat tekshiruvi xulosasi bo'yicha bo'lim xodimlari ishtirokida muxokama yig'ilishi o'tkazilib, bo'lim mas'llariga ijrosini ta'minlash uchun topshiriqlar berilganligini ma'lum qilamiz.

Bo'lim boshlig'i

B.Ergashev

“TASDIQLAYMAN”
Namangan tuman Kambag'allikni
qisqartirish va bandlikka
ko'maklashish bo'limi boshlig'i v/b


_____ **B.Ergashev**
“23” 04 2024 yil

Namangan tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi
xodimlari ishtirokida yig'ilish

B A Y O N № 5

2024-yil 23-aprel

Namangan tuman

Raislik qiluvchi:

A.Ergashev – Namangan tuman Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bulimi boshlig'i

Ishtirok etganlar:

A.Kamardinov - Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi boshlig'i o'rinbosari va bo'lim xodimlari (ro'yxat bo'yicha).

KUN TARTIBI:

Navoiy viloyati Ichki ishlar boshqarmasi xuzuridagi Tergov Boshqarmasining 2024-yil 9-martdagi 18/554-sonli taqdimnomasida ko'rsatilgan holatlar yuzasidan Navoiy shahar Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limida o'tkazilgan xizmat tekshiruv xulosasi bo'yicha va Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasining 2024-yil 17-apreldagi yig'ilish bayoni ijrosini muhokamasi to'g'risida.

=====

(B.Ergashev,Kamardinov, N.Bo'stonov va boshqalar)

Kun tartibidagi masala yuzasidan Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi boshlig'i B.Ergashev yig'ilishni ochib, u o'z so'zida Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlarida olib borilayotgan ishlarda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklar to'g'risida gapirib o'tdi.

Kun tartibida ko'rsatilgan masala yuzasidan fikr bildirib vazirlikni xulosasini o'qib e'shittirildi. Xususan, Navoiy viloyati Ichki ishlar boshqarmasi xuzuridagi Tergov Boshqarmasining 2024-yil 9-martdagi 18/554-sonli taqdimnomasida Navoiy ixtisoslashtirilgan prokuraturasi tomonidan Navoiy shahar Aholi bandligiga ko'maklashish markazining 2023-yil davomida “Navoiy kon metallurgiya kombinati” A.J. “1-son GMZ” kon boshqarmasida ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolar sifatida yuborilib, bandligi ta'minlangan 19 nafar shaxsning ishga joylashtirish bo'yicha yo'llanmalari haqiqiyliigi (QR-code skanerlash orqali) tekshirilganda, bir dona ishga joylashtirish bo'yicha yo'llanmasini bir necha shaxslar nomiga soxta ishga joylashtirish bo'yicha yo'llanmalar rasmylashtirilganligi va ularning biron-tasi ro'yxatga olish kitobiga kiritilmaganligi, holati bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining

128-modda 2-qismi "b"-bandi va 228-moddasi 3-qismi bilan 122062/2023-6-FA-sonli jinoyat ishi qo'zg'atilgan bo'lib, dastlabki tergov harakatlari olib borilmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi vazirlar Mahkamasining 2017-yil 5-dekabrda 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablariga zid ravishda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan shaxslar toifasiga kirmasada, 9 nafar fuqaro ishga joylashtirish bo'yicha yo'llanma orqali va 2 nafar fuqaro kvota hisobiga ishga qabul qilinishiga yo'l qo'yilganligi qayd etilgan.

Xizmat tekshiruvida, taqdimnomada ko'rsatilgan fuqarolardan 7 nafari ijtimoiy ehtiyojmand toifasiga mansubligi hamda 5 nafari ijtimoiy ehtiyojmand toifasiga mansub emasligi ma'lum bo'ldi.

Shuningdek taqdimnomada bayon etilgan 19 nafar fuqarolardan 3 nafari Navoiy shahar Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limiga murojaat qilgan bo'lib, ushbu fuqarolar kasbga qayta tayyorlashga yuborilganligi hamda bir nafar fuqaroga Navoiy kon metallurgiya kombinati A.J ga qarashli "Qizilqum" kon boshqarmasiga (sobiq GMZ 1) ishga joylashtirish bo'yicha yo'llanma berilganligi, qolgan 15 nafar fuqarolar tomonidan shahar bo'limiga murojaat qilmaganligi ma'lum bo'ldi.

Bundan tashqari, 2023-yil davomida "Navoiy kon metallurgiya kombinati" A.J.ga qarashli "Qizilqum kon boshqarmasi (sobiq GMZ -1)ga nechta fuqaro ishga joylashtirilganligi o'rganilganda 78 nafar fuqarolarga ishga joylashtirish bo'yicha shahar bo'limi tomonidan ishga joylashtirish bo'yicha yo'llanma berilganligi hamda Navoiy shahar hokimliginig 2022- yil 3-oktyabrda 252-5-79-Q-22-sonli qarorida "Navoiy kon metallurgiya kombinati" A.J.ga qarashli "Qizilqum kon boshqarmasi (sobiq GMZ -1)ga 20 ta ish o'rni kvotalanganligi ma'lum bo'ldi. Ushbu yuqoridagi "Ishga joylashtirishga doir yo'llanmani berish vakolati va dasturga kirish kodlari vazirlikka qarashli "mehnat sohasidagi loyihalarni boshqarish markazi" MCHJ tomonidan shahar bo'limining 10 nafar mas'l xodimlariga berilgan.

Xizmat tekshiruvida bo'limda mavjud barcha muhr va shtaplar (gerbli muhir, asliga to'g'ri shtamp, tashkilot nomi tushilgan to'rtburchak shtamp, tashkilot chiqish xatlarini qayd qilish shtampli muhri) ga javobgar mas'l xodim hozirgi kunga qadar buyruq asosda birlashtirilmaganligi ma'lum bo'ldi.

Shuningdek, xududiy ishga joylashtirish bo'yicha yo'llanmalar bilan ishga joylashgan 12 nafar fuqarolarga berilgan kvotalar o'rganilganda 7 nafar fuqaroga sobiq xodim S.Bamayev, 4 nafar fuqaroga sobiq xodim N.Gaziyeva va 1 nafar fuqaroga D.Qosimov tomonidan "Bandlik xizmati" axborot tizimi orqali xizmat ko'rsatilib, yo'llanma berilgan.

Yuqoridagi fuqarolarga 2022- yilda yo'llanma berish kafolati shahar bo'limining 1-sektorlarga biriktirilgan xodimlar X.Nurova, Ch.Murodov, S.Bamayev, YE. Norqulov, 2-sektorga biriktirilgan N.Ochilova, N.Gaziyeva, 3-sektorga biriktirilgan B.Murodova, Z.Rajabova va 4-sektorga biriktirilgan S.Bamayev va X.Nurovalar tomonidan "Bandlik xizmati" axborot tizimi orqali ishga joylashtirishga doir yo'llanmalar berilgan.

Xizmat tekshiruvida "Bandlik xizmati" axborot tizimida foydalanuvchi shahar bo'limi xodimlariga biriktirilgan xizmat kompyuterlarini ko'zdan kechirilganda bo'lim boshlig'i o'rinbosari N.Tursunovning ish faoliyatidagi kompyuteridan 5 ta, yetakchi mutaxassis X.Nurovaning kompyuteridan 162 ta, bosh mutaxassis S.Ortiqovning kompyuyeteridan 38 ta va Davlat mehnat huquq inspektorini U.Ochilovning xizmat kompyuteridan 22 ta kvotalar, ya'ni 227 ta ishga joylashtirish yo'llanmasi kasb turi o'zgartirilgan fayl borligi ma'lum bo'ldi.

Misol uchun, tanlama usulda yo'llanmadagi QR-kod o'rganilganda, fuqaro Eshnazarova Zaynab Eshpo'latovnaga "Bandlik xizmati" axborot tizimi orqali berilgan

yo'llanmada nevropatolog kasbi bo'yicha ishga joylashishga shakllangan bo'lsada, shahar bo'limi Davlat mehnat huquq inspektori Ochilov Ulug'bek Sunnatullayev foydalanishida bo'lgan monoblok (0000036-inventar raqamli) kompyuteridan ko'chirib olingan "Yo'llanma 21"-nomli faylda fuqaro Eshnazarova Zaynab Eshpo'latovnaga o'zgartirilgan, ya'ni 2023-yil 25-mayda berilgan yo'llanmada esa Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Navoiy viloyat filialiga xonalar farroshi vazifasiga deb ko'rsatilgan ishga joylashtirishga doir yo'llanma taqdim etilgan va Tibbiyot markazining 19.09.2023yildagi buyrug'i bilan ishga olinganligi ma'lum bo'lganligi to'g'risidagi xulosani o'qib eshittirildi.

Yuqoridagi xolatlar bizning ham bo'limlarida uchrashi mumkin, shuning uchun barcha bo'limning hodimlari o'rganish xulosasidan to'g'ri xulosa chiqarib, shunday kamchiliklar bo'lsa o'z vaqtida bartaraf etish ,yuqoridagi xolatlarni kelib chiqishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha topshiriqlar berildi.

Yuqoridagilarga ko'ra yig'ilish,

QAROR QILADI:

1.Navoiy viloyati Ichki ishlar boshqarmasi xuzuridagi Tergov Boshqarmasining 2024-yil 9-martdagi 18/554-sonli taqdimnomasida ko'rsatilgan holatlar yuzasidan Navoiy shahar Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limida o'tkazilgan hizmat tekshiruv xulosasi bo'yicha va Kambag'allikni qisqartirish va bandlik bosh boshqarmasining 2024-yil 17-apreldagi yig'ilish bayoni ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi boshlig'i o'rinbosari(A.Kamardinov) va bo'lim bosh mutaxassislariga;

-“Bandlik xizmati” axborot tizimida shakllantiriladigan ishga joylashtirishga doir yo'llanma va ishga joylashga ko'maklashish yuzasidan murojaatlarni faqatgina qonun talablari asosida ish olib borisin.

-bo'limdagi xodimlar tomonidan korrupsion holatlarga yo'l qo'ymaslik, kelgusida shunga o'xshash holatlarni oldini olish, holat yuzasidan muhokama qilish va tegishli chora-tadbirlar ishlab chiqilsin.

3. Tashkiliy nazorat va kadrlar bo'yicha bosh mutaxassisi (A.Karimov)ga bo'limda ijro intizomi susayib ketganligi to'g'risida mas'ullarni qat'iy ogohlantirish va xodimlarni ishga kelishi va ishdan qaytishi, tushlikka vaqtida chiqish va belgilangan vaqtda qaytish va boshqa ichki intizom tartiblariga bo'ysunishlarni alohida nazoratga olish vazifasi yuklatilsin.

4.Bayonnoma topshiriqlari ijrosi ustidan nazoratni o'z zimnamda qoldiraman.

Yig'ilish kotibi:



K.Naimova